O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI HOKIMINING QARORI

IND:131000 *O’smat sh. Mustaqillik ko’chasi 42-uy.*

2022 - yil 20 - oktabr 363-3-44-Q/22 Baxmal tumani hokimligi

Davlat ahamiyatidagi 4R 238 "Samarqand sh.-Bulung'ur sh.-Turon q.- Alamli q." avtomobil yo`lining 5,9 km va 6,1 km oralig`iga (Barlos QVP ro`parasida) mahalliy ahamiyatdagi 4K 251 "O'smat sh.-Turon FU" avtomobil yo`lining 13,8 km va 14 km oralig`iga (Payshanba dehqon bozori ro`parasida) 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo’l belgisini o’rnatish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3127-sonli, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “O’zbekiston Respublikasi yo’l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 377-sonli qarorlari hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevralda “Xavfsiz va ravon yo’l” tamoyili asosida avtomobil yo’llarida inson xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman IIBning 2022-yil 22 iyuldagi 7/313-sonli xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Ichki ishlar bo’limining 2022-yil 22 iyuldagi 7/313-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 4R 238 "Samarqand sh.-Bulung'ur sh.-Turon q.- Alamli q."

avtomobil yo`lining 5,9 km va 6,1 km oralig`iga (Barlos QVP ro`parasida) mahalliy ahamiyatdagi 4K 251 "O'smat sh.-Turon FU" avtomobil yo`lining 13,8 km va 14 km oralig`iga (Payshanba dehqon bozori ro`parasida) 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo’l belgisini o’rnatishga ruxsat berilsin.

3. Baxmal tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Sultanov)ga tuman hududida joylashgan umumiy fodalanishdagi avtomobil yo`llarining serqatnov qismlariga piyodalar o`tish joyi yo`l yotiq chiziqlarini chizish va maxsus yo`l belgilarini o`rnatish vazifasi topshirilsin.

4.Qarorni “Baxmal hayoti” gazetasi muharriri T.Berdiyevga chop ettirish va tuman hokimligi axbarot xizmati rahbari A.Egamberdiyevga rasmiy veb-saytida joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

5.Ushbu qaror “Baxmal hayoti” gazetasida rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari A.Quljanov va tuman IIB boshligì A.Jalolovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Anarbayev**